

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

NURIDULLAYEV ASLIDDIN AHROROVICH

**KORXONANI IJARAGA BERISH MUNOSABATLARINI FUQAROLIK
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)

Nuridullayev Asliddin Ahrorovich

Korxonani ijaraga berish munosabatlarini fuqarolik
huquqiy tartibga solishni takomillashtirish..... 3

Нуридуллаев Аслиддин Ахрорович

Совершенствование гражданско-правового
регулирувания отношений аренды предприятия..... 27

Nuridullaev Asliddin Ahrorovich

Improving civil law regulation of
enterprise rental relations..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 56

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

NURIDULLAYEV ASLIDDIN AHROROVICH

**KORXONANI IJARAGA BERISH MUNOSABATLARINI FUQAROLIK
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Yu334 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mgixu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Choriyev Murod Shokirjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Usmanova Muborak Akmaljanovna
yuridik fanlar doktori, professor

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Kuldashev Nuriddin Abduganiyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat yuridik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil « 8 » aprel soat 14³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-80; e-mail: mgixu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3110 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni. Tel.: (99871) 230-32-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 26 » mart kuni tarqatildi.

(2025 yil « 26 » martdagi 4 raqamli reestr bayonnomasi.)



[Signature]
M.X. Rustambayev
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

[Signature]
N.I. Kayriyev
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

[Signature]
B.B. Samarxodjyev
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiluvchi omillardan biridir. Korxonalarining yaxshi, samarali va rentabelli faoliyat yuritishi butun iqtisodiyotning, shu jumladan, ularning o‘zlarining ham ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishiga zamin yaratadi. Bozor iqtisodiyoti korxonalarining fuqarolik huquqi obyekt sifatida erkin muomalada bo‘lishini, ular bilan amalga oshiriladigan shartnomaviy munosabatlarning keng ko‘lamda tatbiq qilinishini talab qiladi. Korxonalarda samarali ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatlaridan biri bu ularni tajribali tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berish hisoblanadi. Xususan, rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mulk huquqini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘luvchi korxonani ijaraga berish bugungi kunda keng qo‘llanilib, ushbu munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlar doirasi tobora kengayib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “mamlakatimizda 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ijara xizmatlari 5811 milliard so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan bu ko‘rsatkich 4,9% ga oshgan”¹. Bu esa, ijara munosabatlarini, jumladan, korxonani ijaraga berish munosabatlarining rivojlanib borayotganligini hamda ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Jahonda korxonani ijaraga berish munosabatlarining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tutgan o‘rnini aniqlash hamda uning huquqiy jihatdan tartibga solinishini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, xususiy munosabatlarda korxonani ijaraga berish shartnomalarini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, korxonani ijaraga berish bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlar, xususan, shartnomalarni tuzish, ularni sharhlash va shartnoma shartlari buzilishini bartaraf etish, shartnoma taraflarining javobgarligi, ijaraga olingan korxonadan belgilangan maqsadlarda foydalanilishini huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, korxonani ijaraga berishda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar yechimini topishda muayyan ilmiy metodologik yondashuvlarni o‘rganish va tahlil etishni taqozo qiladi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarida keng qamrovli dasturiy tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadida “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish”² kabi muhim vazifalar belgilangan. Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarga qaramasdan korxonani ijaraga berish shartnomalarida zaruriy shartlarning yetarli darajada aniq belgilanmaganligi oqibatida ularning bajarilmasligiga yoxud buzilishiga sabab bo‘lmoqda, ba‘zi hollarda korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarni

¹ stat.uz/uz/matbuot-markaz/qo‘mita-yangiliklar/57342-o‘zbekistonda-8-oyda-ijara-xizmatlari-4-9-ga-o‘sgan

² <https://lex.uz/docs/5841063>

qo'llash jarayonida amaliyotda muammolar vujudga kelmoqda. Bundan tashqari, fuqarolik huquqida korxonani ijaraga berish shartnomasining predmeti hisoblangan "faoliyat yuritib turgan korxonalar" tushunchasiga nisbatan qat'iy munosabat bildirilmaganligi natijasida turlicha talqinlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, mamlakatimizda korxonani ijaraga berish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996), "Ijara to'g'risida"gi (1991), "Raqobat to'g'risida"gi (2023) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi 5464-son "O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 660-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Korxonani ijaraga berish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishning muayyan jihatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari dunyoning yetakchi ilmiy markaz va universitetlarida, jumladan, Samsung Economic Research Institute (Janubiy Koreya), University of Bremen (Germaniya Federativ Respublikasi), University of Oxford (Buyuk Britaniya), University of Technology Sydney (Avstraliya), Chestochova texnologiya universiteti (Polsha), Xiamen universiteti (Xitoy), Sumsk davlat universiteti (Ukraina), Sankt-Peterburg politexnika universitetida (Rossiya Federatsiyasi) olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda korxonani ijaraga berish munosabatlari bilan bog'liq shartnomaviy munosabatlarning muayyan jihatlari takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida bir qator ilmiy natijalarga erishilgan. Xususan, korxonalarni ijaraga olishning innovatsion faoliyatga ta'siri (Samsung Economic Research Institute), Yevropa Ittifoqi qonunlari va boshqa sohalardagi siyosatlarining milliy ijara huquqiga ta'sirining qiyosiy tahlili (University of Bremen, Germaniya), tijorat ijarasi bilan yashil rangga o'tish masalalari (University of Oxford, Buyuk Britaniya), majburiy yashil ijara shartlari va yashil ijara faoliyatini rivojlantirish (University of Technology Sydney, Avstraliya), xizmat ko'rsatish va savdo sohasida

³ Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи www.seriworld.org, <https://www.uni-bremen.de/>, <https://www.ox.ac.uk/>, <https://www.uac.edu.au/institutions/university-of-technology-sydney>, https://www.unipage.net/ru/7277/cz_stochowa_university_of_technology, <https://en.xmu.edu.cn/main.htm>, <https://sumdu.edu.ua/uk>, <https://www.spbstu.ru/> ва бошқа манбалар асосида амалга оширилган

faoliyat yurituvchi korxonalar ijarasi afzalliklari (Chestochova texnologiya universiteti, Polsha), mahalliy korxonalarining ijaraga oid xatti-harakatlarini atrof-muhitga ta'siri (Xiamen universiteti, Xitoy), atrof-muhitni boshqarish sohasidagi ijara siyosati strategik nuqtayi nazari (Sumsk davlat universiteti, Ukraina), ijara daromadlari darajasining mintaqaviy innovatsiyalar barqarorligiga ta'siri (Sankt-Peterburg politexnika universiteti, Rossiya Federatsiyasi) tadqiq qilingan.

Hozirda dunyodagi qator ilmiy markazlar va universitetlarda korxonani ijaraga berish munosabatlarining fuqarolik huquqida tutgan o'rnini bo'yicha, xususan uning korxonani ijaraga berish shartnomasining zamonaviy modelini rivojlantirish, uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini kengaytirish, korxonani ijaraga berish munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishni takomillashtirish kabi yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda korxonani ijaraga berish bilan bog'liq munosabatlarning ayrim umumiy jihatlari hamda ushbu shartnomaviy konstruksiyasiga taalluqli bo'lgan muayyan masalalar bir qator olimlarimiz, ya'ni H.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, R.J.Ro'ziyev, O.Oqyulov, M.B.Usmonov, S.B.Boboqulov, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev, A.A.Muhamadiyev, M.A.Usmonova, Y.Nazarov, Sh.Ro'zinazarov va M.X.Borotovlarning asarlarida u yoki bu darajada o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, 2002-yilda R.J.Ro'ziyev "Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk ijarasining shartnomaviy-huquqiy muammolari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida, 2008-yilda S.B.Boboqulov tomonidan "Iqtisodiy islohotlar jarayonida ijara munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirishning fuqarolik huquqiy muammolari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida, 2022-yilda U.Q.Hajiyev "Fuqarolik muomalasi obyekti sifatida korxonani huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" mavzusidagi y.f.b.f.d. dissertatsiyalarida korxonani ijaraga berish shartnomasi alohida paragraflarda tadqiq etilgan. 2005-yilda M.B.Usmonov tomonidan "Qishloq xo'jaligida ijara" deb nomlangan monografiyasida qishloq xo'jaligi korxonalarida ijara bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan korxonani ijaraga berish munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalasi umumiy tarzda M.I.Braginskiy, V.V.Vitryanskiy, S.N.Bratus, A.P.Sergeyev, Y.K.Tolstoy, I.V.Yeliseyev, O.S.Ioffe, O.M.Kozir, A.L.Makovskiy, O.N.Sodikov, Y.A.Suxanov, V.I.Korolev, V.N.Tabashnikov, Y.A.Vasilev, A.S.Komarov, A.V.Yorsh, V.M.Landa va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, 2008-yilda N.I.Loginova tomonidan "Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi bo'yicha korxonalar ijarasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan: A.Baumbach, K.J.Hopt, Canaris Claus-Wilhelm, W.Schilling, P.Ulmer, O.Palandt, T.Pellanmo, G.Walter kabi olimlarning asarlarida korxonani ijaraga berishning ayrim masalalari o'rganilgan.

Ta'kidlash joizki, milliy sivilistikamizda korxonani ijaraga berish munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishga oid umumiy jihatlari FK sharhlari, o'quv adabiyotlari hamda tadqiqotlarning bir qismi doirasida o'rganilgan. O'zbekistonning fuqarolik huquqi sohasida korxonani ijaraga berish munosabatlarini

fuqarolik-huquqiy tartibga solishning mohiyati, korxonani ijaraga berish shartnomasining iqtisodiy-huquqiy vazifasi hamda maqsadlari, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi o'zni va ahamiyati kompleks ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi korxonani ijaraga berish tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari, korxonani ijaraga berish shartnomasini tuzish va uni amalda qo'llash hamda korxonani ijaraga berish munosabatlarini huquqiy tartibga solishdagi muammolar yechimini topish hamda fuqarolik huquqi nazariyasini boyitishga oid ilmiy-nazariy xulosalar hamda qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari va genezisini yoritib berish;

xorijiy mamlakatlarda korxonani ijaraga berish munosabatlarining fuqarolik huquqiy tartibga solinishini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishda shartnomaning tutgan o'zni va ahamiyati aniqlash;

korxonani ijaraga berish shartnomasi tushunchasi, muhim shartlari va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

korxonani ijaraga berish shartnomasining shakli, tuzish tartibi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchining huquq va majburiyatlarini yoritib berish;

korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchining huquq va majburiyatlarini yoritib berish;

korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat subyektlarini tadqiq etish;

korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat obyektlarini ilmiy tahlil etish;

korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat mazmuni ilmiy-amaliy tahlil qilish;

korxonani ijaraga berish shartnomasini umumiy asoslarda bekor qilish bilan bog'liq munosabatlarni o'rganib chiqib, takliflar ishlab chiqish;

korxonani ijaraga berish shartnomasini bekor qilish oqibatlarini o'rganib chiqib, milliy qonunchiligimizni boyitish yuzasidan tavsiyalar berish;

korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik va uni takomillashtirishga oid tavsiyalarni shakllantirish;

Tadqiqotning obyekti korxonani ijaraga berish munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini korxonani ijaraga berishning nazariy va amaliy muammolari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy va tizimli yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, normativ-huquqiy va amaliy tahlil, mantiqiylik, huquqni qo‘llash va sud amaliyotini tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mualliflik yondashuvi asosida “korxonani ijaraga berish shartnomasi” tushunchasi “ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mulkiy kompleks sifatida faoliyat yuritib turgan butun korxonani yoki uning mustaqil faoliyat yurita oladigan bir qismini haq evaziga berish majburiyatini oladigan kelishuv” sifatida boyitilgan;

ijarachining ijaraga olingan yer uchastkasida o‘z mablag‘lari va qarzga olgan mablag‘lari hisobidan qurilishning umumiy qoidalariga rioya qilgan holda zarur ishlab chiqarish va noishlab chiqarish binolari, shu jumladan uy-joy qurish huquqi shartnomada ko‘zda tutilgan bo‘lishi kerakligi va ayni paytda ijara shartnomasi tugatilgach, mazkur binolar va inshootlar kimga tegishli bo‘lishi qayd etib qo‘yilishi kerakligi asoslab berilgan;

ijara shartnomasi shartlarining o‘zgartirilishiga, uning bekor qilinishiga va tugatilishiga tomonlarning kelishuvi bilan yo‘l qo‘yilishi asoslantirilgan;

ijarachi muomalaga layoqatsiz deb topilgan taqdirda shartnoma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va shartlarda tugatilishi, bunday holda ijarachining oila a‘zolaridan biri ijara shartnomasi tuzishda ustun huquqqa ega bo‘lishi, ijarachi sodir etgan jinoyati uchun kelgusida shartnomani bajara olishiga imkon bo‘lmaydigan usulda jazolangan taqdirda ham ijara shartnomasi tugatilishi asoslab berilgan;

ijaraga beruvchi tomonidan ijara shartnomasining muddati tugashidan bir oy oldin ijaraga oluvchiga ijara shartnomasi shartlari o‘z vaqtida va to‘liq bajarilmagan taqdirda, ijara shartnomasining muddati kelgusi davr uchun uzaytirilmasligi to‘g‘risida ogohlantirish xati yuborilishi lozimligi asoslantirilgan;

agar ijara shartnomasining muddati tugaganidan keyin ham ijaraga oluvchi mulkdan foydalanishni davom ettirsa va ijaraga beruvchi bunga e‘tiroz bildirmagan bo‘lsa, shartnoma avvalgi shartlar asosida qaytadan tuzilgan deb hisoblanishi asoslab berilgan;

ijaraga oluvchi tomonidan ijara shartnomasi shartlari o‘z vaqtida va to‘liq bajarilganda, agar ijaraga oluvchi shartnoma muddatini uzaytirmaslik to‘g‘risida murojaat qilmagan bo‘lsa, ijara muddati navbatdagi muddatga uzaytirilgan deb hisoblanishi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarining ishonchliligi tadqiqotda amalga oshirilgan usullar, rasmiy manbalardan olingan ma‘lumotlardan foydalanilganligi, olimlarning nazariy yondashuvlari, xorijiy va milliy qonunchilik hujjatlarining qiyosiy o‘rganilganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundaki, unda erishilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, fuqarolik, tadbirkorlik qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi,

tadbirkorlik huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqotda bildirilgan nazariy xulosalar korxonani ijaraga berish bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlarni kengaytirish va takomillashtirish, sohada tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ishtiroki hamda fuqarolik-huquqiy shartnomalarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq dolzarb yangi mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotni amalga oshirish natijasida shakllantirilgan xulosalar, qoidalar, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishda, “Fuqarolik huquqi”, “Tadbirkorlik huquqi” va “Shartnomalar huquqi” fanlarini o‘qitishda va ushbu fanlar bo‘yicha yoziladigan darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda hamda ma‘ruza matnlarini, o‘quv kurslarining dasturlarini tuzishda, ilmiy-tadqiqot ishlarida hamda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda, shuningdek sud amaliyotida korxonani ijaraga berish bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqishda foydalanish mumkin bo‘lgan manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korxonani ijaraga berish munosabatlarini fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

“korxonani ijaraga berish munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solish”ga doir konseptual g‘oya va takliflar “Jamoat xavfsizligini huquqiy ta‘minlash” mutaxassisligi tinglovchilari uchun tayyorlangan “Shartnoma huquqi” darsligi (III bob 7-§. Mulk ijarasining turlari)da o‘z ifodasini topgan (O‘R OO‘MTVning 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug‘i, 302-1071-sonli o‘quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada ushbu mutaxassislik bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar, kursantlar, tinglovchilar, magistrantlar, o‘qituvchilar, shuningdek, fuqarolik huquqini qo‘llovchi amaliyot xodimlarining bilim, o‘quv va ko‘nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qilgan;

ijaraga berish chog‘ida ijarachining ijaraga olingan yer uchastkasida binolar va uy-joy qurish bilan bog‘liq mulkchilik munosabatlariga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan “Ijara to‘g‘risida”gi 427-XII-sonli Qonuni 9-moddasi, uchinchi qismiga O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2024-yil 18-martdagi O‘RQ–922-son Qonuni 1-moddasi bilan o‘zgartirishlar kiritishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasining 2024-yil 24-iyuldagi 04/7-10-79-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ijara shartnomasi tugatilgach, ijarachining ijaraga olingan yer uchastkasida qurilgan binolar va inshootlar kimga tegishli bo‘lishligini aniq huquqiy tartibga solinishiga xizmat qilgan;

ijara shartnomasi shartlarini o‘zgartirish, uni bekor qilish va tugatishga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan “Ijara to‘g‘risida”gi 427-XII-sonli Qonuni 13-moddasi, birinchi qismiga O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va

qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2024-yil 18-martdagi O‘RQ–922-son Qonunni 1-moddasi bilan o‘zgartirishlar kiritishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasining 2024-yil 24-iyuldagi 04/7-10-79-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ijara shartnomasi shartlarining o‘zgartirilishi, uning bekor qilinishi va tugatilishini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilgan;

ijarachining muomalaga layoqatsizligi va sodir etgan jinoyati uchun ijara shartnomasi shartlarini o‘zgartirishiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan “Ijara to‘g‘risida”gi 427-XII-sonli Qonuni 13-moddasi, uchinchi qismiga O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2024-yil 18-martdagi O‘RQ–922-son Qonunni 1-moddasi bilan o‘zgartirishlar kiritishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasining 2024-yil 24-iyuldagi 04/7-10-79-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ijara shartnomasi tugatilishi bilan bog‘liq munosabatlarni aniq huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilgan;

davlat mulkini ijaraga berish qoidalari to‘g‘risidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 23-bandida o‘z ifodasini topgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahliliy va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 19-sentabrdagi 12-15-67-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ijara shartnomasi taraflarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni takomillashtirishga xizmat qilgan;

ijara shartnomasining qaytadan tuzilganligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 24-bandi 1-xatboshisida o‘z ifodasini topgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahliliy va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 19-sentabrdagi 12-15-67-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ijara shartnomasi tuzish tartibini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ijara shartnomasi muddatiga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 24-bandi 2-xatboshisida o‘z ifodasini topgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahliliy va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 19-sentabrdagi 12-15-67-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ijara shartnomasini uzaytirish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solinishini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamalardan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, xususan 2 ta monografiya, 2 ta darslik, 13 ta ilmiy maqola (4 tasi xorijiy nashrlarda), 5 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, o'n uchta paragrafni o'z ichiga olgan to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 260 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Korxonani ijaraga berish munosabatlarini fuqarolik huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi”** deb nomlanib, unda korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari va genezisi, xorijiy mamlakatlarda korxonani ijaraga berish munosabatlarining fuqarolik huquqiy tartibga solinishi, korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishda shartnomaning tutgan o'rni va ahamiyati bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan.

Ushbu bobning *“Korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari va genezisi”* deb nomlangan birinchi paragrafda muallif tomonidan adabiyotlarni tahlil qilish asosida korxonani ijaraga berish munosabatlarini huquqiy tartibga solishning tarixiy rivojlanishi yoritib berilgan va har bir davrdagi korxonani ijaraga berish munosabatlarini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Mulk ijarasi va undan kelib chiqadigan munosabatlar Qadimgi Rim davlatida quldorlik tuzumi yemirilib, feodalizmga qadam qo'yilayotgan davrda vujudga kelgan, ularning huquqiy asoslari o'z ifodasini Imperator Konstitutsiyasida topgan. Qadimgi Rim davrida korxonani ijarasi ijaraning alohida turi sifatida namoyon bo'lmagan va bunday munosabatlar ijaraga to'g'risidagi umumiy qoidalar bilan tartibga solingan.

Musulmon huquqida mulk ijarasi munosabatlarining obykti bo'lgan mulk hamda mulkchilik masalalari har tomonlama hal qilingan. Musulmon huquqi asoslariga muvofiq, mulk ijarasi obykti bo'lib ko'char va ko'chmas mol-mulklar hisoblangan. Musulmon huquqida korxonani ijaraga berish munosabatlarining alohida obykti sifatida ajratib ko'rsatilmagan bo'lib, ko'chmas mulk va asbob uskunalar ko'rinishida namoyon bo'lgan.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida korxonalar bilan bog'liq bo'lgan bitimlarga nisbatan cheklovlar o'rnatilgan. Xususan, RSFSR Savdo va Sanoat Xalq Komissariatining 1918-yil 20-apreldagi “Savdo va savdo-sanoat korxonalarini uchun o'rnatiladigan huquqiy cheklovlar to'g'risida”gi Qarori bilan vakolatli organning har bir alohida holat uchun maxsus ruxsatnomasiz savdo va savdo-sanoat korxonalarini

qisman yoki to'liq sotish va sotib olish, ijaraga berish yoki garovga qo'yish, o'tkazish, topshirish va qayta topshirish taqiqlandi.

Biroq, yangi iqtisodiy siyosat amalga oshirilishi boshlanishi bilan vaziyat o'zgarib ketadi. Natsionalizatsiya natijasida davlatning qo'lida juda ko'p mayda korxonalar to'planib qolib, ularning ko'pchiligi xomashyo va ishchi kuchi yetishmasligi oqibatida to'xtab qoldi. Taxmin qilish qiyin emaski, og'ir iqtisodiy sharoitda davlat bunday korxonalarga yordam berish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va bu to'xtab qolgan korxonalarni ijaraga berish to'g'risida qaror qabul qilinishiga turtki bo'ldi.

Adabiyotlarda o'sha davrlardagi ijara munosabatlarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Birinchidan, ijara obyektii sifatida ishchilar soni unchalik ko'p bo'lmagan korxonalar tashkil qilgan bo'lsa ham, sanoat korxonalarining deyarli yarmini tashkil qilgan va ijaraga olingan korxonalarda ishlayotgan ishchilar bandligi bo'yicha 8,5% tashkil qilgan. Ikkinchidan, asosiy ijarachilar xususiy shaxslar (asosan, sobiq mulkdorlar) bo'lishgan: 1923-yilning boshiga qadar xususiy shaxslar ijaraga berilgan korxonalarining yarmiga egalik qilishgan. Uchinchidan, ijara haqi dastlab natura ko'rinishida bo'lgan va mazkur korxonada ishlab chiqarilgan tovarlar yoki hom ashyolar bilan to'langan.

Dastlab ijara munosabatlarining salmoqli ravishda rivojlanishiga qaramasdan 1927-yilda uni to'xtatib qo'yishga qaratilgan tendensiya shakllandi. 1920-yillarning oxirlarida vujudga kelgan ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv tizimi uchun ijara mutlaqo begona narsaga aylandi. 1928-1929-yillarda davlat korxonalarini ijaraga berishni dastlab cheklovchi, keyinchalik esa taqiqlovchi hukumat qarorlari qabul qilindi. Shu bilan, xo'jalik tizimining muhim elementi hisoblangan ijara mutlaqo taqiqlandi.

1980-yillarning ikkinchi yarmiga kelib SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "SSSRda ijara va ijara munosabatlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinishi bilan korxonalar ijarasi qayta jonlandi. Mazkur Qarorning 1-bandiga ko'ra, davlat, kooperativ yoki boshqa jamoat korxonalari mulki asosiy fondlarni, aylanma vositalarni, boshqa moddiy boyliklar va moliyaviy resurslarni birlashtirgan holda ijara munosabatlarining obyektii sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan.

Ijara munosabatlari rivojlanishining keyingi bosqichi 1989-yil 23-noyabrda SSSR va Ittifoqdosh Respublikalarning ijara to'g'risidagi qonunchilik Asoslari (keyingi o'rinlarda Asoslar) qabul qilinishi bilan boshlandi. Korxonalar (birlashmalar) ijarasi mazkur hujjatning maxsus bo'limida (16-25 moddalarda) o'z ifodasini topdi.

Respublikamizda ijara munosabatlarini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan "Ijara to'g'risida"gi qonuni alohida o'rin egalladi.

Jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti qonunchilik tizimining davr talabiga mos ravishda yangilanib borishini taqozo qilganidek, ijara munosabatlarining rivojlanib borishi ham ularni tartibga soluvchi qonunlarni takomillashtirishni zarurat qilib qo'yadi.

Shu ma'noda, mamlakatimiz bozor munosabatlariga asta-sekinlik bilan o'tib borishning hozirgi bosqichida ijara munosabatlarini huquqiy tartibga solishni yanada

yuqori pog'onaga ko'tarishda 1997-yilning 1-martidan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi alohida ahamiyat kasb etdi. "Bozor Konstitutsiyasi" deb tan olingan va mulkiy munosabatlarning asosiy qonunlari majmuasi hisoblangan ushbu Kodeksda ijara munosabatlarini tartibga solishga bag'ishlangan alohida huquqiy qoidalar o'z ifodasini topdi. Endilikda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida avvalgi qonunlarda mavjud bo'lgan qator kamchiliklar bartaraf etildi. Xususan, unda mulk ijarasining alohida turlari to'g'risidagi maxsus qoidalar nazarda tutilgan 6 ta paragrafdan iborat bo'lgan mulk ijarasi bobi o'z ifodasini topdi. Korxonani ijaraga berish mulk ijarasining alohida turi sifatida e'tirof etildi va O'R FK 34-bobida 8 ta modddan iborat "Korxonani ijaraga berish" deb nomlangan 5-paragrafda mustahkamlandi.

"Xorijiy mamlakatlarda korxonani ijaraga berish munosabatlarining fuqarolik huquqiy tartibga solinishi: qiyosiy-huquqiy tahlil (Germaniya va Shveysariya misolida)" deb nomlanuvchi ushbu bobning ikkinchi paragrafida Germaniya va Shveysariya davlatlari qonunchiligida korxonani ijaraga berish munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi qiyosiy-huquqiy tahlil qilib chiqilgan.

Dissertatsiya ishida tadqiqotchi Germaniya va Shveysariya fuqarolik qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish asosida O'R FKda ijaraga beruvchining ijaraga oluvchini ijaraga olingan korxonada faoliyati sohasiga olib kirish va u bilan aynan korxonada faoliyat yuritayotgan sohada raqobatlashmaslik majburiyati belgilanmaganligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, aynan shunday majburiyatning O'R FKga kiritilishi judayam muhim. Chunki, korxonani ijaraga olayotgan shaxs bundan daromad olishni maqsad qiladi va buning uchun u korxonada faoliyat yuritayotgan sohani yaxshi o'zlashtirib olishi zarurdir. Bundan tashqari, ijaraga beruvchi korxonani ijaraga bergunga qadar ushbu sohada professional faoliyat yuritgan va u korxonani ijaraga berganda ijaraga oluvchi bu sohaga endi kirib kelgan bo'ladi. Bunday holatda ijaraga beruvchi ushbu sohada boshqa korxonada tashkil qilib ijaraga oluvchi bilan raqobatlashadigan bo'lsa, o'z-o'zidan ma'lumki korxonani ijaraga oluvchi bu raqobatda sinib ketishi mumkin. Bunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida, tadqiqotchi tomonidan O'R FKda ijaraga beruvchining ijaraga oluvchini ijaraga olingan korxonada faoliyati sohasiga olib kirishi va u bilan aynan korxonada faoliyat yuritayotgan sohada raqobatlashmasligini belgilovchi qoida kiritish taklifi ilgari suriladi.

Shuningdek, tadqiqotchi Germaniya va Shveysariya fuqarolik qonunchiligidagi korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga soluvchi normalarining tahlilidan kelib chiqib quyidagi xulosalarni ilgari surgan:

birinchidan, Germaniya va Shveysariya fuqarolik qonunchiligidagi korxonani ijaraga berish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar korxonani sotish munosabatlarini tartibga soluvchi normalarga judayam yaqin;

ikkinchidan, korxonada tarkibiga kiruvchi har bir moddiy element bo'yicha bunday ashyolar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan alohida tasarruf etishni nazarda tutuvchi bitim tuziladi;

uchinchidan, sotuvchida ham, ijaraga beruvchida ham sotib oluvchi va ijaraga oluvchini topshirilgan korxonada faoliyati sohasiga olib kirish va u bilan aynan korxonada faoliyat yuritayotgan sohada raqobatlashmaslik majburiyati mavjud;

to'rtinchidan, ijara muddati tugaganidan so'ng ijaraga beruvchining barcha majburiyatlari ijaraga oluvchiga yuklatiladi.

“Korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishda shartnomaning tutgan o'rni va ahamiyati” deb nomlanuvchi ushbu bobning uchinchi paragrafida muallif korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asosi sifatida shartnomaning o'ziga xos xususiyatlarini, korxonani ijaraga berish munosabatlarini huquqiy tartibga solishda shartnomaning roli va ahamiyatini atroflicha yoritib bergan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Korxonani ijarasini huquqiy tartibga solish vositasi sifatida korxonani ijaraga berish shartnomasi tushunchasi, shakli, tuzish tartibi va mazmuni”** deb nomlanib, unda:

Korxonani ijaraga berish shartnomasi tushunchasi, muhim shartlari va o'ziga xos xususiyatlari korxonani ijaraga berish shartnomasining shakli, tuzish tartibi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishini takomillashtirish, korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchining hamda ijaraga oluvchining huquq va majburiyatlari bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Korxonani ijaraga berish shartnomasi tushunchasi, muhim shartlari va o'ziga xos xususiyatlari”*ga bag'ishlangan bo'lib, unda o'rganilayotgan masala bo'yicha olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Xususan, tadqiqotchi olimlar (V.V.Vitryanskiy, M.I.Braginskiy, V.N.Tabashnikov, H.Rahmonqulov, R.J.Ro'ziyev, S.Boboqulov, B.M.Shokirov, U.Q.Hajiyev, T.L.Levshina, I.V.Yeliseyevlar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida korxonani ijaraga berish shartnomasining o'ziga xos belgilari va xususiyatlarini ochib berib, korxonani ijaraga berish shartnomasiga quyidagi mualliflik ta'rifini bergan: *“Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mulkiy kompleks sifatida faoliyat yuritib turgan butun korxonani yoki uning mustaqil faoliyat yurita oladigan bir qismini haq evaziga berish majburiyatini oladi, ijaraga beruvchi boshqa shaxslarga o'tkazishi mumkin bo'lmagan huquq va majburiyatlar bundan mustasno”*.

Bundan tashqari, tadqiqotchi tomonidan shartnomaning predmeti sifatida faoliyat yuritib turgan korxonani yoki uning mustaqil faoliyat yurita oladigan bir qismi bo'lishi lozimligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirib berilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Korxonani ijaraga berish shartnomasining shakli, tuzish tartibi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishini takomillashtirish”*ga bag'ishlangan bo'lib, unda tadqiqotchi korxonani ijaraga berish shartnomasining shakli, tuzish tartibi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishini tahlil qilib, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ilgari surgan. Tadqiqotchi olimlar (V.V.Vitryanskiy, H.Rahmonqulov, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev, I.Y.Pavlovalar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida korxonaning o'ziga xosligi, u turli xil obyektlardan tashkil topgan bo'lishi mumkinligi, ular bilan tuzilgan bitimlar ham maxsus ro'yxatga olinishi mumkinligini ta'kidlaydi. Xususan, xizmat ixtirolari, foydali modellar, sanoat namunalariidan foydalanish huquqini o'tkazish O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lsa, korxonani ijaraga berish shartnomasining tegishli qismi haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi asoslantirilgan (O'zR Fkning 1036-moddasi 6-qismi, 1088-moddasi).

Shuningdek, dissertatsiyada olimlar (I.B.Zokirov, O.M.Kozir, Sh.M.Asyanov, I.Y.Pavlovalar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida korxonani ijaraga berish shartnomasi davlat ro'yxatidan o'tkazilmas ekan, u tuzilmagan hisoblanishi asoslantirilgan. Tuzilmagan shartnoma esa hech qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi. Demak, tuzilmagan shartnomani haqiqiy emas deb topish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Bu mantiq esa, Fuqarolik kodeksining 580-moddasi 3-qismiga asoslanadi. Unga ko'ra, korxonani ijaraga berish shartnomasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "*Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchining huquq va majburiyatlari*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda korxonani ijaraga beruvchining huquq hamda majburiyatlari atroflicha tahlil qilingan va takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda olimlar (A.A.Ivanov, G.F.Shershenevich, S.B.Boboqulov, I.V.Yeliseyev, R.J.Ro'ziyevlar)ning fikrini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelingan: "ijaraga oluvchi tomonidan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha talab qo'yilganda ijaraga beruvchi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha O'R FK 542-moddasi 1-qismining 1 va 2-bandlarida belgilangan muayyan harakatlardan birini amalga oshirish huquqini tanlashga haqli. Agarda ijaraga oluvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni talab qilsa, ijaraga beruvchi ushbu talabni qabul qilishi yoki uni rad etib kamchiliklarni bepul bartaraf etishni taklif qilishi lozim".

Dissertatsiyada korxonani topshirish shartnomasining predmetini oddiy ashyolar yig'indisi tashkil etmasligi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinib, tadqiqotchi tomonidan quyidagi fikr ilgari suriladi: "Korxonani mavjud bo'lgan barcha huquqiy munosabatlari bilan qo'lga kiritar ekan, shaxs unga topshirilgan ishni topshirilgunga qadar bo'lgan qimmatlikka ega bo'lishiga ishonadi. Agarda ijaraga beruvchi topshirilgan korxonaga bilan yonma-yon bir xil bo'lgan yangi korxonaga ochsa va eski aloqalaridan foydalansa, korxonaga topshirilgan shaxsning iste'molchilarini asosiy qismini o'ziga og'dirib olishi mumkin. Bu holatda bitim o'z mazmun-mohiyatini yo'qotadi va kontragentning manfaatlariga zid bo'lib qoladi. Shunday qilib, korxonadan samarali foydalanish uchun korxonaning eski egasi tomonidan raqobat qilishini cheklash muhim ahamiyat kasb etadi".

Dissertatsiyaning "*Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchining huquq va majburiyatlari*" deb nomlanuvchi ikkinchi bobining to'rtinchi paragrafida korxonani ijaraga oluvchining huquq va majburiyatlari ilmiy-nazariy ham amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotchi olimlar (S.B.Boboqulov, V.V.Vitryanskiy, A.V.Yorsh lar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosani ilgari suradi: "Ijara obyektini sifatida korxonaga to'xtaladigan bo'lsak, bunda undan foydalanmaslik ijaraga beruvchining jiddiy zarar ko'rishiga va hattoki korxonani yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Bu narsa shu bilan bog'liqki, har qanday korxonaning majburiy elementi uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mulkiy huquq va majburiyatlar hisoblanadi. Aynan ushbu elementlar sababli korxonaga tashkiliy jihatdan (masalan, hamkor sheriklar va ishlab chiqariladigan tovarlar iste'molchilari bilan aloqalar) mavjud bo'ladi, ya'ni u normal faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ijaraga olingan mulkiy kompleks asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirilmamasligi ijaraga beruvchida mavjud bo'lgan yuridik va faktik

aloqalarning yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Korxonada faoliyati bilan bog‘liq mulkiy munosabatlarning yo‘qotilishi uning faoliyatini to‘xtatib qolishiga va oddiy mulkiy kompleksga aylanib qolishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ijaraga olingan korxonadan foydalanmaslik uning moddiy tuzilishida ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, chorvachilik kompleksi ijaraga olinadigan bo‘lsa xo‘jalik faoliyatini yuritish imkonini beradigan asosiy mol-mulk muayyan sondagi bosh qoramol hisoblanadi. Ijaraga oluvchining bunday kompleksdan arzimagan qisqa vaqt davomida foydalanmaslik ham qoramollarning kamayib ketishiga, ozuqalarning buzilishiga olib kelishi, ya‘ni korxonada faoliyatining jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib ta‘kidlash joizki, ijaraga oluvchi o‘ziga topshirilgan korxonani nafaqat ekspluatatsiya qilish huquqiga, balki majburiyatiga ham egadir. Aks holda korxonada o‘z qiymatini yo‘qotib qo‘yadi”.

Dissertatsiyaning uchinchi bobini **“Korxonani ijaraga berish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning tarkibiy qismlari”** deb nomlanib, unda korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat subyektlari, obyektlari va mazmuni ilmiy-nazariy va amaliy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

Ushbu bobning *“Korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat subyektlari”* deb nomlangan birinchi paragrafida korxonada ijarasi masalasida ishtirok etishi lozim bo‘lgan subyektlar qatorida tadbirkorlik subyektlari nazarda tutilganini asoslantirilib, korxonada ijarasi huquqiy munosabatlariga kirishish o‘z qamrovida tijoriy maqsadni nazarda tutishi xususiyatiga asoslangan holda, mazkur shartnoma subyektlari ham tijorat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari bo‘lishi g‘oyasi ilgari suriladi.

Tadqiqotchi olimlar (N.I.Loginova, O.I.Torres, A.I.Bush, V.V.Vitryanskiylar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosani ilgari suradi: *“Odatda boshqa shartnomalarda bir paytning o‘zida tadbirkorlik bilan birga maishiy maqsadlarni amalga oshirish nazarda tutilsa, korxonada ijarasi bilan bog‘liq shartnomalar asosan shartnomaning tijoriy xarakterini o‘zida jamlaydi hamda aynan shu xususiy belgisiga ko‘ra ijaraning boshqa turlaridan farqlanadi. Korxonadan foydalanishda faqat tijorat faoliyati doirasida foydalanishni uning alohida belgisi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida bayon etilgan fikrimizdan aniq bir narsa ravshanki, korxonani ijaraga oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxsligidan qat‘iy nazar tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyatiga, huquqiga ega bo‘lishi shartnomaning maqsadini belgilab beradi. Bundan tashqari, korxonani ijaraga berish shartnomasi doirasida shuni aytish kerakki, jismoniy yoki yuridik shaxs uchun tadbirkorlik huquqini beruvchi ruxsatnoma unga ijara shartnomasida subyekt sifatida ishtirok etishini maqsad qilib emas aksincha, ijaraga olingan korxonada va unga tegishli bo‘lgan barcha xossalardan foydalanish huquqini berishi, kerak bo‘lsa shuni qayd etish kerakki, shartnomaning maqsadlaridan biri sifatida shartnoma bandlarida aks etishi kerak”*.

Dissertatsiyada korxonani ijaraga berish shartnomasi ikki tomonlama xususiyatga egaligi faktidan kelib chiqqan holda, shartnoma taraflariga nisbatan aniq talab mezonini ishlab chiqish lozimligi ta‘kidlanadi. Asoslantiriladigan bo‘lsa, mustaqillikning dastlabki yillarida korxonada ijarasi asosan faqat davlat mulkini

nazarda tutganligi bois bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarini ushbu huquqiy munosabatlarga kirishgandagi maqomining ochiqmaganligi bahsli munozarani yuzaga keltiradi. Shu sababli ham, korxonani ijarasi shartnomasi subyektlarini tasniflashni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlarining qamrovini ham aniqlash zarur. Ya'ni tadbirkorlik subyekti sifatida yuridik va jismoniy shaxslarning korxonani ijarasi shartnomasiga kirishishdagi huquqiy maqomini belgilash muhimdir.

Korxonani ijaraga berish shartnomasi doirasida jismoniy yoki yuridik shaxs uchun tadbirkorlik huquqini beruvchi ruxsatnoma unga ijara shartnomasida subyekt sifatida ishtirok etishini maqsad qilib emas aksincha, ijaraga olingan korxonani va unga tegishli bo'lgan barcha xossalardan foydalanish huquqini berishi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirilgan.

Mazkur bobning *“Korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat obyektlari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat obyektlari atroflicha ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqotchi olimlar (Y.V.Chernikova, Y.V.Arsenteva, A.A.Sudakov, N.D.Yegorov, S.S.Alekseyev, V.N.Shryoter, V.V.Rozenberglar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosani ilgari suradi: *“Korxonani deganda tadbirkorlik faoliyatining ma'lum bir turini amalga oshirish jarayonida rivojlangan va korxonani faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha moddiy va nomoddiy elementlarni o'z ichiga olgan mulkiy kompleks tushunilishi kerak”*.

Muallifning fikricha, korxonani vaqtincha egalik qilish va foydalanishga o'tkazishda alohida moddiy boyliklarni topshirishning o'zi yetarli emas, korxonani g'oyasi bilan birlashtirilgan huquq va majburiyatlarni ham topshirish kerak. Bundan tashqari, ko'p hollarda korxonani topshirish bilan ijaraga beruvchi kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Shu sababli, ushbu majburiyatlarni bajarish korxonani ijarachisiga topshirilishi kerak.

“Korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat mazmuni” deb nomlangan uchinchi bobning uchinchi paragrafida korxonani ijaraga berish shartnomasiga asosan vujudga keladigan majburiyat mazmuni ilmiy-nazariy va amaliy tahlil qilingan. Tadqiqotchi olimlar (O.S.Ioffe, A.V.Vlasova, V.K.Tolstoy, A.A.Ivanov, V.V.Vitryanskiy, M.I.Braginskiy, V.V.Rozenberglar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosani ilgari suradi: *“Demak, korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha korxonani mohiyatan undagi tarkibiy qismlarining bir shaxsdan boshqasiga o'tishi bilan bog'liq. Mulk majmuasining har bir qismi ijaraga oluvchiga unga nisbatan qo'llaniladigan topshirish qoidalariga muvofiq o'tkazilishi kerak. Shunday qilib, ijaraga beruvchi ko'chmas mulkka egalik huquqini ijaraga oluvchiga o'tkazishi kerak. Ko'char narsalarga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni ijaraga oluvchiga topshirish yoki taqdim etish; ishlab chiqarish sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uzatish (nou-xau); ijaraga oluvchiga ixtirolar va foydali modellardan foydalanishning haqiqiy imkoniyatini berish; tovar belgilari foydalanishni (tegishli litsenziya shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazishni anglatadi) va boshqalar topshirish lozim”*.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Korxonani ijaraga berish shartnomasini bekor qilish tartibi, shartnoma bo'yicha majburiyatlarini buzganlik uchun**

javobgarlik va uni takomillashtirish masalalari” deb nomlanib, unda korxonani ijaraga berish shartnomasini umumiy asoslarda bekor qilish, korxonani ijaraga berish shartnomasini bekor qilish oqibatlari, korxonani ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik va uni takomillashtirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Ushbu bobning *“Korxonani ijaraga berish shartnomasini umumiy asoslarda bekor qilish”* deb nomlanuvchi birinchi paragrafida qayd etilishicha, ijaraga olingan korxonadan foydalanish nafaqat huquq, balki ijarachining majburiyati sifatida ham ko‘rib chiqilishi kerak. Korxonadan foydalanmaslik uning mulkiy tarkibiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishiga sabab bo‘lishi mumkin. Korxonani ishlashdan to‘xtatish vaqtinchalik bo‘lishi kerak, bu esa tadbirkorga korxonada bazasida faoliyat olib borilgan ishlarni qayta tiklash, qaytadan boshlashiga imkon berishi lozim. Ijara shartnomasini umumiy asoslarda bekor qilish jarayonida korxonadan qanday tartibda foydalanilganligi, ta‘mirlash ishlari olib borilgan bo‘lsa undan ko‘zlangan maqsad, korxonada faoliyati to‘xtatilganida ijara haqi masalasi, shuningdek, korxonani ijaraga oluvchi tomonidan korxonada muddatidan avval qonuniy tartibda topshirilmasdan shunchaki ko‘chirilganda qanday oqibatlar mavjudligi va boshqalarni e‘tibordan chetda qolmasligi lozim.

Dissertant korxonani ijaraga berish shartnomasini umumiy asoslarda bekor qilish masalasini tahlil qilar ekan, quyidagi xulosalarni bildirib o‘tadi:

Birinchi, korxonani ijaraga berish shartnomasida ijara haqining muhim xususiyatidan kelib chiqqan holda ushbu shartnomada albatta korxonada tarkibidagi mavjud yer uchastkasi maydoni, korxonada hududining aniq chegarasi, shuningdek foydalanish uchun topshirilgan korxonada tarkibidagi mavjud obyektlarning ro‘yxati hamda korxonani umumiy asoslarda bekor qilish qaysi hollarda hisobga olinishi bilan bog‘liq faktik ma‘lumotlar korxonada ijara shartnomasi bandlarida ko‘rsatilishi shart.

Ikkinchi, korxonada ijara shartnomasi umumiy asosda bekor qilinishi uchun avvalo u tuzilgan bo‘lishi kerakligini bayon etgan holda korxonani ijaraga berish shartnomasi bevosita taraflarning huquq va majburiyatlari bilan bevosita bog‘liqligi, mazkur shartnoma albatta davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi zarurligini nazarda tutilishi lozim.

Uchinchi, korxonani ijaraga berish shartnomasini umumiy asosda bekor qilish niyati to‘g‘risida tomonlarni majburiy ravishda oldindan xabardor qilishni joriy etish kerak. Bunda ijara shartnomasini sudda bekor qilinishidan oldin ijaraga oluvchiga ikkita hujjat yuborilishi kerak: ijaraga oluvchi tomonidan to‘lanmagan ijara to‘lovlari to‘lash majburiyatini bajarish zarurati to‘g‘risida yozma ogohlantirish va shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi taklif. Yuqorida qayd qilingan ikki hujjatning taraflar o‘rtasida almashinuvini asoslovchi hujjatlarning mavjudligi taraflardan birining tashabbusi bilan korxonani ijaraga berish shartnomasini umumiy asoslarda bekor qilishni so‘rab murojaat qilishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kerak.

To‘rtinchidan, qo‘shimcha tarzda korxonada mulkining sezilarli darajada yomonlashuvi tushunchasining chegarasini aniq belgilash kerak. Bundan tashqari, ijaraga berilgan korxonada kasbiy ishlab chiqarish xususiyatlari hamda korxonada tarkibiy qismlari sifatining o‘zgarishi, aniq tartibda ijara shartnomasini bekor qilish asoslari sifatida shartnomada o‘z ifodasini topishi lozim.

Ushbu bobning *“Korxonani ijaraga berish shartnomasini bekor qilish oqibatlari”*ga bag‘ishlangan ikkinchi paragrafida qayd etilishicha, bugungi kunda korxonani ijaraga berish shartnomasini bekor qilish oqibatlari mulk ijarasining boshqa turlarini bekor qilish oqibatlaridan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Buning asosiy sababi shartnoma predmeti bo‘lgan faoliyat yuritib turgan mulkiy kompleks hisoblanuvchi korxonalar bilan bog‘liqdir. Korxonani ijaraga berish shartnomasining asosi korxonalar hisoblanadi, shuning uchun bunday shartnoma uchun maxsus tartibga solish nazarda tutilgan. Korxonalar mulk turi sifatida real va majburiy elementlardan tashkil topgan murakkab xususiyatga ega. Ushbu ijara shartnomasi bo‘yicha korxonalar kompleks xususiyatga egaligi bilan boshqa turdagi shartnomalardan farqlanib turadi.

Muallifning fikricha, qaytarilgan korxonalar ijaraga beruvchiga topshirilgunga qadar korxonalar tarkibiga kirgan majburiyatlar bo‘yicha kreditorlar ijaraga oluvchi tomonidan korxonaning ijaraga beruvchiga qaytarilishi to‘g‘risida xabardor qilinishi kerak. Ijaraga oluvchi, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, korxonani ijaraga beruvchiga topshirishga tayyorlash bo‘yicha choralar ko‘rishi, shu jumladan topshirish dalolatnomasini tuzish va imzolash uchun taqdim etishi shart.

Shu bilan birga korxonani ijaraga berish shartnomasini bekor qilish oqibatlarini tartibga soluvchi O‘R FKning 586-moddasiga qo‘shimcha tarzda korxonani ijaraga berish shartnomasini bekor qilish oqibatlari holati yuz berganida uni aniq huquqiy tartibga soluvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozim. Dissertatsiyada olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosa ilgari suriladi: *“Korxonani ijaraga berish shartnomasi bekor bo‘lganida, ijaraga olingan mulkiy kompleks faoliyat yuritib turgan holatda ushbu Kodeksning 579 va 581-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilgan holda ijaraga beruvchiga qaytarilishi shart”*.

“Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik va uni takomillashtirish” deb nomlangan ushbu bobning uchinchi paragrafida qayd etilishicha, korxonani ijaraga berish shartnomasida korxonani ijaraga beruvchi shartnomada berilgan majburiyatlarni ijaraga oluvchi bajarishi yoki aksincha bajarmasligi masalasida tavakkal qilishga, shuning bilan bir paytda korxonani ishlab turgan holatda boshqa shaxsga topshiradi. Lekin korxonani qabul qilib olish paytida korxonaning ishchanlik holati mavjud yoki mavjud emasligi xavf (risk, tavakkalchilik) ostida bo‘ladi. Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik masalasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonada mavjud uning tarkibiy (asbob-uskunalari) qismlarini eskirishi, zamonaviy texnika ashyolarining shitob bilan rivojlanishi, ijaraga oluvchining joriy paytdagi moliyaviy holati va boshqa jihatlar ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Dissertantning fikricha, korxonani ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar asosan korxonalar tarkibiy qismlarining avvalgidek soz, talabga javob beradigan holatda ishlashi, shartnoma bekor qilinganda yoki o‘zgartirilganida korxonalar tarkibiy qismlari taraflar shartnomada kelishgan shartlar asosida topshirilishi, basharti yetkazilgan zarar yoki shartnomada bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarni bajarish uchun javobgarlik holatlari aniqlansa, tegishli tartibda mazkur shartnomada yozilgan majburiyatlar orqali yetkazilgan zararni javobgardan undirish mexanizmlarini takomillashtirish muhimdir.

XULOSA

Korxonani ijaraga berish munosabatlarini huquqiy tartibga solishni kompleks tadqiq etish va bu boradagi huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish asosida quyidagi konseptual xulosalar qilindi va tegishli qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif hamda huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.1. O'R FKda ijaraga beruvchining ijaraga oluvchini ijaraga olingan korxonada faoliyati sohasiga olib kirishi va u bilan aynan korxonada faoliyat yuritayotgan sohada raqobatlashmasligini belgilovchi qoida kiritish maqsadga muvofiq.

1.2. Kamchiliklardan holi bo'lmagan bu qonunlar mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan "birinchi avlod" qonunlari birgalikda O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish shart-sharoitlarining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda ijara munosabatlarini amaliyotga keng joriy qilish va rivojlantirishning huquqiy asosini tashkil qiladi.

1.3. Korxonani ijaraga berishda ijaraga beruvchining majburiyati faqatgina ijara shartnomasi bilan belgilangan tarkibdagi mol-mulkni topshirish bilan cheklanib qolmaydi. Ijaraga beruvchi zimmasiga, shuningdek, ijaraga oluvchini ijaraga olingan korxonada faoliyati sohasiga olib kirish majburiyati yuklatiladi.

1.4. Ijara shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan so'ng ijaraga oluvchi mulkiy kompleksni ijaraga beruvchiga qaytarish bo'yicha zarur bo'lgan barcha harakatlarni amalga oshirishga majbur. Bunda mol-mulkdan tashqari ijaraga beruvchiga korxonani topshirish paytida mavjud bo'lgan barcha talab qilish huquqi va qarzlarni ham topshiriladi. Shu bilan birga, endi ijaraga oluvchi ijaraga beruvchini korxonada ijaraga olingan muddat davomida keskin o'zgargan va rivojlangan faoliyati sohasiga olib kirish majburiyatiga ega bo'ladi.

1.5. Germaniya va Shveysariya fuqarolik qonunchiligidagi korxonani ijaraga berish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar korxonani sotish munosabatlarini tartibga soluvchi normalarga judayam yaqin bo'lib, buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

birinchidan, korxonada tarkibiga kiruvchi har bir moddiy element bo'yicha bunday ashyolar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan alohida tasarruf etishni nazarda tutuvchi bitim tuzilishi lozim;

ikkinchidan, sotuvchida ham, ijaraga beruvchida ham sotib oluvchi va ijaraga oluvchini topshirilgan korxonada faoliyati sohasiga olib kirish va u bilan aynan korxonada faoliyat yuritayotgan sohada raqobatlashmaslik majburiyati mavjud;

uchinchidan, ijara muddati tugaganidan so'ng ijaraga beruvchining barcha majburiyatlari ijaraga oluvchiga yuklatiladi.

1.6. Mulk ijarasi yuzasidan vujudga keladigan munosabatlar qat'iy ravishda aniq bo'lgan shaxslar o'rtasida o'rnatiladi. Shuning uchun ular o'rtasidagi huquqiy munosabatning mazmuni ishtirok etuvchi taraflarning xohish-irodasi bo'yicha belgilanadi. Mol-mulkni ijaraga berish (olish) bo'yicha munosabatlarning bunday uslubda shakllanishi ko'p jihatdan iqtisodiyotning bozor munosabatlari asosida rivojlanishi talablariga to'liq javob beradi. Shu tufayli mulk ijarasi yuzasidan vujudga

keladigan huquqiy munosabatlarni ham shartnoma asosida shakllanadigan shartnomaviy-huquqiy munosabatlar turkumiga kiritish mumkin.

1.7. Mulk ijarasi shartnomasida ijaraga berilayotgan mol-mulkning tarkibi aniq belgilab olinishi lozim. Amaliyotni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda ijaraga berilayotgan mol-mulkning tarkibi aniq ko'rsatilmaydi. Oqibatda, mol-mulkdan foydalanish jarayonida, shartnoma muddati tugagandan so'ng, mol-mulkni qaytarib olishda qiyinchiliklar tug'diradi.

1.8. Mulk ijarasi huquqiy munosabatlarini vujudga kelishi uchun asos hisoblangan mulk ijarasi shartnomasida amaldagi qonunlarga muvofiq keladigan, taraflar manfaatlarini yuridik jihatdan himoya qiladigan va qonuniy maqsadni ifoda etadigan shartlarning aniq belgilanishi shartnomani takomillashtirishga, uni to'g'ri amal qilishiga xizmat qiladi.

1.9. Korxonani ijaraga berish shartnomasi tushunchasiga bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: "Korxonani ijaraga berish shartnomasi deb ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mulkiy kompleks sifatida faoliyat yuritib turgan butun korxonani yoki uning mustaqil faoliyat yurita oladigan bir qismini haq evaziga berish majburiyatini oladigan kelishuvga aytiladi".

1.10. Korxonani ijaraga berish shartnomasining mazmunidan kelib chiqib, uning elementlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

birinchi element ashyolarni topshirish to'g'risidagi shartlar hisoblanadi: yer uchastkalari, bino, inshoot, asbob-uskunalar, korxonaga asosiy vositalari tarkibiga kiruvchi boshqa narsalar, shuningdek, ijaraga beruvchiga mulk huquqi yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishli bo'lgan aylanma vositalar (xom ashyo zahiralari, yoqilg'i, materiallar va boshqalar);

ikkinchi element ijaraga berilayotgan korxonaga tegishli bo'lgan mulkiy huquq va qarzlarni topshirish haqidagi shartlar hisoblanadi;

uchinchi element alohida turdagi mulkiy huquqlar – mutloq huquqlar kompleksini topshirish tartibini belgilab beruvchi shartlar kiradi.

1.11. Korxonani ijaraga berish shartnomasining predmeti faoliyat yuritib turgan mulkiy majmua ko'rinishidagi butun korxonaga yoki uning boshqa qismlaridan mustaqil faoliyat yurita oladigan bir qismi bo'lishi mumkin. Korxonaning mustaqil faoliyat yurita olmaydigan bir qismi korxonani ijaraga berish shartnomasining predmeti bo'la olmaydi, balki boshqa shartnomalar (masalan, ko'chmas mulk ijarasi shartnomasi, bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi)ning predmeti bo'lishi mumkin.

1.12. Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijara oluvchiga quyidagilarni berishi lozim:

— Ijaraga beruvchi tashkilotning asosiy vositalariga tegishli bo'lgan korxonaga tarkibiga kiruvchi binolar, inshootlar va boshqa obyektlarni tashkil etishi;

— boshqa shaxslarga tegishli bo'lgan asosiy vositalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi - qonun hujjatlarida belgilangan taqiy va cheklovlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish lozimligi;

— korxonaga faoliyati bilan bog'liq talablar va qarzlardan tarkib topishi kerak.

1.13. Hozirgi bosqichda qonun normalarida ijaraga olingan korxonada tuzilmasining majburiy va ixtiyoriy elementlari ro'yxatini to'liq ochib berish maqsadida mulk-korxonani (huquqlar obyektini) chegaralashning bir xil usulidan foydalanish ahamiyatli. Mamlakat milliy qonunlari bilan ijaraga olingan korxonada mavjud yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan moddiy elementlarning keyingi taqdiri masalasi hal qilinishi kerak.

II. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan taklif va tavsiyalar:

2.1. O'R FK "Mulk ijarasining obyektlari" deb nomlangan 537-moddasiga quyidagi mazmundagi uchinchi qismni kiritish maqsadga muvofiq: "Ijara shartnomasida ijaraga oluvchiga ijara obyekti sifatida topshirilishi lozim bo'lgan mol-mulkni aniq belgilash imkonini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi shart. Shartnomaning obyekti to'g'risidagi shartlarda bunday ma'lumotlar bo'lmasa, taraflar o'zaro kelishib olmagan, tegishli shartnoma esa tuzilmagan hisoblanadi".

2.2. O'R FK 579-moddasining 1-qismini quyidagi tahrirda berish maqsadga muvofiq: "Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun mulkiy kompleks sifatida faoliyat yuritib turgan butun korxonani yoki uning mustaqil faoliyat yurita oladigan bir qismini haq evaziga berish majburiyatini oladi, ijaraga beruvchi boshqa shaxslarga o'tkazishi mumkin bo'lmagan huquq va majburiyatlar bundan mustasno".

2.3. O'R FK 579-moddasining 2-qismini quyidagi tahrirda berish maqsadga muvofiq: "Ijaraga beruvchi o'z qarzlarini ijaraga oluvchining zimmasiga o'tkazishi haqida kreditorlarini yozma ravishda ogohlantirishi shart, kreditorlar bunga rozi bo'lmasalar, ogohlantirishni olgan vaqtdan boshlab uch oy davomida ijaraga beruvchidan tegishli majburiyatlarni bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni va shu tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Ogohlantirish shaxsan kreditorning o'ziga berilishi yoki topshirish sharti bilan pochta orqali jo'natilishi lozim. Ogohlantirishda ikkala tarafning rekvizitlari va korxonani topshirish nazarda tutilgan muddat ko'rsatilishi shart. Agar shu muddatda mazkur talablardan birontasi bildirilmasa, kreditor tegishli qarzning ijarachiga o'tkazilishiga rozilik bergan deb hisoblanadi".

2.4. O'R FK 579-moddasini quyidagi mazmundagi 6-qism bilan to'ldirish lozim: "Ijaraga olingan korxonada ijaraga oluvchiga topshirilganidan keyin ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini ijaraga olingan korxonada faoliyati sohasiga olib kirishga va unga korxonada faoliyatini yuritib ketish imkoniyatini yaratib berishga majbur".

2.5. O'R FK 579-moddasini quyidagi mazmundagi 7-qism bilan to'ldirish maqsadga muvofiq: "Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ijaraga oluvchi topshirilgan korxonani qabul qilib olgan paytdan boshlab uning faoliyat yuritishini ta'minlashi shart".

2.6. O'R FK 581-moddasini 1-qismini quyidagi mazmundagi qoida bilan to'ldirish maqsadga muvofiq: "Topshirish dalolatnomasi korxonaning tarkibi, topshiriladigan mol-mulkda aniqlangan kamchiliklar haqida ma'lumotlar va yo'qolganligi tufayli topshirish majburiyatlari vujudga kelishi mumkin bo'lmaydigan mol-mulkning ro'yxati ko'rsatilishi lozim. Topshirish dalolatnomasiga korxonani

ijaraga berilayotganligi to'g'risida kreditorlarni ogohlantirilganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi”.

2.7. O'R FKga “Korxonani ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchining huquqlarini cheklash” deb nomlangan 581¹-moddasini kiritish va uni quyidagi tahrirda berish maqsadga muvofiq: “Korxonani ijaraga berish shartnomasida ijaraga beruvchiga butun ijara muddati davomida taraflar kelishgan hududda aynan ijaraga berilgan korxonaga o'xshash korxonalar tashkil qilmaslik majburiyati yuklatilishi mumkin”.

2.8. O'R FK 583-moddasi 1-qismini quyidagi tahrirda berish maqsadga muvofiq: “Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ijaraga oluvchi ijaraga olingan korxonalar mol-mulki tarkibiga kiruvchi aylanma vositalar hisoblangan hom-ashyo, yoqilg'i, mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarni ijaraga beruvchining rozilgisiz sotish, ayirboshlash, vaqtincha foydalanishga yoxud qarzga, qo'shimcha ijaraga berishga, shuningdek korxonalar bahosini pasaytirmaslik va ijara shartnomasining boshqa bandlarini buzmaslik sharti bilan bunday boyliklarga nisbatan ijara shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga o'tkazishga haqli”.

2.9. O'R FK 586-moddasini quyidagi tahrirda berish maqsadga muvofiq: “Korxonani ijaraga berish shartnomasi bekor bo'lganida, ijaraga olingan mulkiy kompleks faoliyat yuritib turgan holatda ushbu Kodeksning 579 va 581-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilgan holda ijaraga beruvchiga qaytarilishi shart”.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida” Nizomning 17-bandini quyidagi tahrirda berish maqsadga muvofiq:

“Ijaraga beruvchi tomonidan davlat mulki quyidagi tartiblarda ijaraga beriladi: savdo platformasida o'tkazilgan elektron onlayn-auksion savdolar orqali;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida davlat mulki jismoniy va yuridik shaxsga ijaraga berilishi belgilanganda (ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida); qonunchilikda belgilangan boshqa tartiblar asosida”.

III. Korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan taklif va tavsiyalar:

3.1. Ijaraga berilayotgan mulkiy kompleksning murakkab tarkibiy tuzilishi ushbu shartnomaning asosiy xususiyatlarini belgilab beradi. Xususan, bunda korxonaning alohida elementlarini topshirishga qaratilgan ayrim bitimlar uning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Butun korxonalar egalik qilish va foydalanish uchun topshirilgan ekan taraflar korxonaning har bir elementini ularga tegishli amaldagi qoidalarga amal qilgan holda topshirishlari shart.

3.2. Korxonani ijaraga berish shartnomasining muhim shartlariga shartnomaning bahosi kiradi. Shartnomada ijara haqi to'g'risida taraflar yozma ravishda kelishib olgan shart bo'lmasa, korxonani ijaraga berish shartnomasi

tuzilmagan hisoblanadi. Bunday qoida bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasiga nisbatan belgilangan bo‘lib (O‘zR FK 577-moddasi), korxonani ijaraga berish shartnomasiga nisbatan ham qo‘llaniladi. Chunki, Fuqarolik kodeksining 34-bob 5-paragrafida boshqacha tartib belgilanmagan.

3.3. Korxonani ijaraga berish shartnomasining shakli uchun qonunda maxsus talablar o‘rnatilgan. Fuqarolik kodeksining 580-moddasiga muvofiq, korxonani ijaraga berish shartnomasi taraflar imzolagan bitta hujjat tarzida yozma shaklda tuziladi va u notarial guvohlantirilishi hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim. Binobarin, fuqarolik kodeksining 366-moddasi 4-qismining shartnomalar pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi taraftan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoidalar korxonani ijaraga berish shartnomasiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

3.4. Korxonani ijaraga berish shartnomasini umumiy asoslarda bekor qilish jarayonida ijaraga beruvchining korxonani ijaraga berish mobaynida ko‘rgan zarari, korxonani ijaraga beruvchi tomonidan ijarachiga korxonani ijarada ishlatish davrida yetkazilgan zarar, ijara obyektini ta‘minlash uchun sarflangan pul miqdori, boy berilgan foyda – korxonani ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha ijara to‘lovlarining umumiy summasi va korxonani ijaraga beruvchi tomonidan ijara objekti uchun to‘langan pul summasi o‘rtasidagi farq va boshqalarni huquqiy tartibga solish shart.

3.5. O‘R FK 551-moddasi 3-qismi shartnomani bekor qilish haqidagi talabga javob olish imkoniyatini emas, balki ijaraga oluvchi tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarini bajarish (shartnoma buzilishini bartaraf etish) imkoniyatini nazarda tutadi. Boshqa tomondan, agar ogohlantirish shartnomani bekor qilish haqidagi talabni o‘z ichiga olmaydigan bo‘lib ko‘rinsa, undan sudga da‘vo arizasi bilan murojaat qilish uchun O‘R FK 384-moddasi 2-qismiga binoan ijaraga beruvchi ogohlantirishdan tashqari ijaraga oluvchiga shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi taklifni ham yo‘llashi lozim bo‘ladi.

3.6. Korxonani ijaraga berish shartnomasi masalasida majburiyatlarni bajarish lozimligi haqida yozma ogohlantirish shartnomani bekor qilish (o‘zgartirish) to‘g‘risidagi talabni o‘z ichiga olmasligi mumkin. Bunday holda ijaraga beruvchi sudga murojaat qilishdan oldin O‘R FK 384-moddasi 2-qismiga muvofiq ijaraga oluvchiga shartnomani bekor qilish haqidagi taklifni ham jo‘natishi kerak bo‘ladi.

3.7. Taraflardan birining talabi bilan shartnomani bekor qilishda (o‘zgartirishda) nizoni hal qilishning sudgacha bo‘lgan tartibiga (O‘R FK 384-modda 2-qismi) amal qilgan holda shartnomani bekor qilish (o‘zgartirish) haqidagi talabni sudga taqdim etish lozim.

3.8. Qaytarilgan korxonani ijaraga beruvchiga topshirilgunga qadar korxonani tarkibiga kirgan majburiyatlar bo‘yicha kreditorlar ijaraga oluvchi tomonidan korxonaning ijaraga beruvchiga qaytarilishi to‘g‘risida xabardor qilinishi kerak. Ijaraga oluvchi, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, korxonani ijaraga beruvchiga topshirishga tayyorlash bo‘yicha choralar ko‘rishi, shu jumladan topshirish dalolatnomasini tuzish va imzolash uchun taqdim etishi shart.

3.9. Tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo‘yilganligini ta‘minlash uchun korxonani ijaraga berish shartnomasini bekor qilishni tartibga

soluvchi qonun va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishda yakuniy kelishuvga to'xtaladigan bo'lsak, mulkni qaytarib berish va ijara shartnomasi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilgandan so'ng, tomonlar yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirishlari va shartnoma bo'yicha barcha moliyaviy majburiyatlarni bajarishlari kerak.

3.10. Korxonani ijaraga berish bo'yicha majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik ijara shartnomasini bekor qilish va ijarachini binolardan chiqarib yuborish shaklida berilishi mumkin. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, ijarachining shartnoma shartlariga mos kelmaydigan barcha harakatlari bekor qilinishi mumkin, bu ham ijarachi uchun qo'shimcha yo'qotishlarga olib keladi.

3.11. Fuqarolik qonunchiligi bino va inshootlarni, masalan korxonalarni ijaraga berish shartnomasi bo'yicha ushbu majburiyatni bajarishning o'ziga xosligi, ushbu ijara munosabatlarida mulkni qabul qilish va topshirish aktidan foydalanishni belgilaydi. Mulkni qabul qilish va topshirish, o'tkazish dalolatnomasining mavjudligi ijaraga olingan binolardan haqiqiy foydalanish shartlarini ko'rsatishi mumkin.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

НУРИДУЛЛАЕВ АСЛИДДИН АХРОРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО
РЕГУЛИРОВАНИЯ ОТНОШЕНИЙ АРЕНДЫ ПРЕДПРИЯТИЯ**

**12.00.03 – Гражданское право. Предпринимательское право. Семейное право.
Международное частное право**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (DSc)**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.3.DSc/Yu334.

Докторская диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.mgjxu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный консультант:

Чориев Мурод Шокиржонович
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Усманова Муборак Акмалджановна
доктор юридических наук, профессор

Боротов Миродилжон Хомуджонович
доктор юридических наук, профессор

Кулдашев Нуриддин Абдуганиевич
доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский государственный юридический университет


Защита диссертации состоится « 8 » апреля 2025 года в 14³⁰ часов на заседании Разового научного совета на основе Научного совета DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 по присуждению ученых степеней при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан (Адрес: 100211, Ташкентская область, Зангиотинский район, посёлок Чорсу. Тел.: (99871) 230-32-71; факс: (99871) 230-32-80; e-mail: mgjxu@umail.uz)


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (зарегистрировано за № 3110). Адрес: 100211, Ташкентская область, Зангиотинский район, посёлок Чорсу. Тел.: (99871) 230-32-71.


Автореферат диссертации разослан « 26 » марта 2025 года.

(Реестр протокола рассылки № 4 от « 26 » марта 2025 года).




М.Х. Рустамбаев
Председатель Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор


Н.И. Хайриев
Учредитель Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор


Б.Б. Самарходжаев
Председатель научного семинара при Разовом научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире деятельность предприятий является одним из факторов, оказывающих прямое влияние на национальную экономику и её секторы. Хорошее, эффективное и прибыльное функционирование предприятий создаёт основу для высоких показателей всей экономики, в том числе и их собственных. Рыночная экономика требует свободного обращения предприятий как объектов гражданского права, а также широкого применения договорных отношений с ними. Одним из способов организации эффективного производства и достижения высоких показателей рентабельности на предприятиях является сдача их в аренду опытным субъектам предпринимательства. В частности, в социально-экономической жизни развитых стран аренда предприятий, выступающая одной из форм реализации права собственности, сегодня широко применяется, и мы видим, что круг субъектов, участвующих в этих отношениях, постоянно расширяется. Так, в нашей стране в январе-августе 2024 года объём услуг аренды составил 5 811 миллиардов сумов, что на 4,9% больше по сравнению с аналогичным периодом 2023 года¹. Это свидетельствует о развитии арендных отношений, в том числе аренды предприятий, а также определяет необходимость совершенствования их правового регулирования.

В мире особое внимание уделяется определению роли отношений по аренде предприятия в развитии предпринимательской деятельности, а также изучению их правового регулирования. В этом отношении особую актуальность приобретает поиск научно-теоретических и практических решений по гармонизации нормативно-правовых актов, регулирующих договоры аренды предприятий, особенно в частных отношениях, договорным отношениям, связанным с арендой предприятия, в частности, заключение договоров, их толкование и устранение нарушений условий договора, ответственность сторон договора, совершенствование механизма правового регулирования использования арендованного предприятия в установленных целях. Это, в свою очередь, требует изучения и анализа определенных научных методологических подходов при поиске решений проблем, возникающих на практике при аренде предприятия.

В нашей стране последовательно проводятся комплексные программные мероприятия по приоритетным направлениям обеспечения стабильности закона и дальнейшего реформирования судебной системы. 29-я цель² новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы определяет такие важные задачи, как «Создание условий для организации предпринимательской деятельности и формирования постоянных источников доходов населения, доведение доли частного сектора в валовом внутреннем продукте до 80 процентов, в экспорте — до 60 процентов». Несмотря на реализуемые широкомасштабные меры, недостаточно четкое определение необходимых условий в договорах аренды предприятия приводит к их невыполнению или нарушению, в ряде случаев на практике возникают проблемы в процессе применения правовых норм,

¹ stat.uz/uz/matbuot-markaz/qo'mita-yangiliklar/57342-o'zbekistonda-8-oyda-ijara-xizmatlari-4-9-ga-o'sgan

² <https://lex.uz/docs/5841063>

регулирующих арендные отношения предприятия. Кроме того, отсутствие строгого отношения к понятию «действующее предприятие», которое в гражданском праве считается предметом договора аренды предприятия, приводит к различным толкованиям. Это указывает на необходимость дальнейшего совершенствования правового регулирования отношений, связанных с арендой предприятия в нашей стране.

